

INTERFAOL TA'LIM METODLARINING MAZMUN-MOHİYATI VA ULARNING TASNIFI

Ashurova Zilolaxon Baxodir qizi

GDPI magistranti.

zilolaashurova079@gmail.com +998889090074

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17775553>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'limda interfaol metodlarning mazmun-mohiyati atroflicha yoritilgan. O'qitishning zamonaviy metodlari asosida dars jarayonlarini tashkil etishning afzalliklari va natijalari bayon etilgan. Shu bilan bir qatorda, interfaol metodlarni tasniflashda e'tiborga olinadigan jihatlar sanab o'tilgan va ushbu ta'lim metodlarining tasnifi keltirib o'tilgan. Dars jarayonida ta'lim metodlarini tanlashda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi haqida tushunchalar berilgan. Interfaol metodlarga misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol metod, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlar, pedagogik texnologiya, ta'lim, ta'lim metodlari, tasniflash.

Аннотация. В статье подробно изложены содержание и сущность интерактивных методов в образовании. Описаны преимущества и результаты организации учебного процесса на основе современных методов обучения. Перечислены аспекты, которые следует учитывать при классификации интерактивных методов, и дана их классификация. Даются понятия о том, на что следует обращать внимание при выборе методов обучения в учебном процессе. Приведены примеры интерактивных методов.

Ключевые слова: Интерактивный метод, интерактивные стратегии обучения, интерактивные графические органайзеры, педагогические технологии, образование, методы обучения, классификация.

Abstract. This article provides a detailed description of the content and essence of interactive methods in education. The advantages and results of organizing lesson processes based on modern teaching methods are described. In addition, the aspects to be considered when classifying interactive methods are listed and a classification of these teaching methods is given.

Concepts are given about what to pay attention to when choosing teaching methods in the lesson process. Examples of interactive methods are given.

Keywords: Interactive method, interactive teaching strategies, interactive graphic organizers, pedagogical technology, education, teaching methods, classification.

Kirish. Hech kimga sir emaski, shiddat bilan rivojlanib borayotgan XXI asr ilm-fan taraqqiyoti ijtimoiy hayotning hech bir sohasini chetlab o'tayotgani yo'q. Ma'lumki, har bir kashfiyot, har bir yangilikning negizida ta'lim turadi. Ilm-fan taraqqiyoti mamlakat taraqqiyoti uchun nechog'lik zarur bo'lsa, ta'lim ham shunchalik zaruratdir. Sharqda azal-azaldan ilm-fan taraqqiyoti va ta'limga e'tibor kuchli bo'lgan.

Buyuk qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino ham o'zining "Donishnoma-i Aloiy" asarida quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: "Bilimning haqiqati – uni qo'llaganda ayon bo'ladi" [3].

Ta'limning muhim va dolzarbligi bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotgani yo'q.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning ta’lim sohasidagi qaror va farmonlarida ta’lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim vazifa sifatida belgilangan [2,95].

Jumladan, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirish strategiyasi”da integratsiyaviy, zamonaviy metodlar asosida tashkil etiladigan ta’limning dolzarbligi ta’kidlangan[1,112].

Bugungi milliy pedagogikada “interfaol metodlar” nomi bilan kirib kelayotgan metodlar talaba-o‘qituvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Qisqa vaqt mobaynida ma’lum nazariy bilimlarni o‘quvchiga yetkazish, unda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma, malaka hosil qilish hamda baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chaqqonlikni talab qiladi [7,694]

Interfaol ta’lim metodlari.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda.

O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘shishiga olib keladi [4,90].

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi mutassil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi [5,37].

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi [4,92].

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo’lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo’llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Shunday qilib, fanlarni o’qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o’ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o’rganish va amalda qo’llash o’quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to’g’ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. O’quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o’quvchi-talabalarning bilim, ko’nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi[6,51].

Interfaol metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”), “Blist-so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” “Assiment”, “Ikki qismli kundalik” va hokazo.

2. Interfaol ta’lim strategiyalari. “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va hokazo. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q.

3. Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Assiment”, “Ikki qismli kundalik” va hokazo.

Interfaol ta’lim metodlarini ko’pincha turli shakllardagi o’quv mashg’ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo’llanmoqda. Bu metodlarni qo’llash mashg’ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi [5,40].

Ta’lim metodlarini tanlash. Pedagogika fanida, o’qituvchilarning amaliy tajribasini o’rganish va umumlashtirish asosida ta’lim metodlarini tanlashga o’quv-tarbiya jarayoni, kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog’liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi.

Ta’lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- Ta’limning umumiy maqsadlari.
- Fanning va o’rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o’ziga xosliklari.
- Biror fanni o’qitish metodikasining o’ziga xosliklari.
- Materialni o’rganishga ajratilgan vaqt.
- O’quv mashg’ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.
- O’quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.
- O’quvchilarning tayyorgarlik darajasi.
- Ta’lim muassasasining moddiy ta’minlanganligi.

• O'qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi [4, 95].

Xulosa. Bir so'z bilan aytganda, bugungi kun zamonaviy ta'limini zamonaviy ta'lim metodlarisiz tasavvur etish mushkul. Pedagogning har bir dars uchun qo'yilgan maqsadiga erishishining asosiy omillaridan biri, aynan, ta'limning zamonaviy metodlari sanaladi. Interfaol metodlarni dars jarayonida to'g'ri qo'llash dars samaradorligini ta'minlash bilan bir qatorda, o'quvchilar faolligini oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarda mavjud bo'lgan ayrim psixologik va nutqiy muammolarni ham bartaraf etishga yordam beradi. Ya'ni interfaol metodlar ta'limga, hech shubhasiz, suv va havodek zarurligi bugungi kunda o'z isbotini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Sh.Mirziyoyev - "O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish strategiyasi". Toshkent: Prezident matbuot xizmati. 2019, 112 b.
2. Prezident qarori. "Ta'limni modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish to'g'risida" Toshkent. Hukumat nashriyoti. 2022, 95 b.
3. Abu Ali Ibn Sino. "Donishnoma-i Aloiy". Toshkent.:Fan. 1958, 248 b.
4. Mirzayeva F.O., Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. Toshkent.:Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi. 2023, 304 b.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi.:Nasaf. 2000.
6. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.:O'qituvchi, 2004.
7. Yangiboyev G'R. O'quv amaliyotlarini tashkil etishda interfaol metodlaridan foydalanishida didaktik imkoniyatlari. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 693-695. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.684>.